

INSONNING O‘Z HUQUQLARINI ANGLASHIDA QONUNNING ROLI

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti 2-kurs talabasi
Xolmirzayeva Mushtariybegim Ergash qizi
Ilmiy rahbar: I. Xudoynazarov*

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan inson huquqlari mavzusiga to‘xtalib o‘tilgan. Qolaversa, inson huquqlarini mustahkamlash va tatbiq etishda alohida ahamiyat kasb etgan qonunlarga ham e’tibor qaratilgan. Jamiyatimizning rivojlanishi bevosita va bilvosita insonning o‘z huquqlarini anglab yetishi, shuningdek, qonunning bu boradagi asosiy kuch ekanligini yoritib berishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: BMT, Assambleya, referendum, huquq, nizom, modda, jamiyat, deklaratsiya, ombudsman.

Bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri insonlarning o‘z huquqlarini yetarlicha anglay olmasligidir. Bu esa turli anglashilmovchiliklar va qonunbuzarliklarga sabab bo‘lmoqda. Inson huquqlarini barcha jabhalarda keng miqyosda targ‘ib qilish ushbu muammoning yechimi bo‘la oladi. Agar mamlakat bo‘ylab barcha sohalarida qonun ustuvorligini ta’minlasak va aholining huquq hamda erkinliklarini himoya qilsak, bu bizning jahon miqyosida maqtana oladigan yutuqlarimizdan biri bo‘la oladi. Inson huquqlari bo‘yicha qabul qilingan qarorlar, xalqaro qonunlar va hujjatlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, eng avvalo Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi diqqatimizni tortadi. Ushbu deklaratsiyaning tarixiga nazar tashlasak, quyidagi ma’lumotlarga duch kelamiz: 1776-yil 12-iyunda AQShning Virjiniya shtatida deklaratsiya qabul qilingan. Keyinchalik ushbu deklaratsiya 1948-yilning 10-dekabrida Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan Bosh Assambleyaning 217 A (III) qarori bilan qabul qilingan va hujjatga zamin vazifasini o‘tab bergan¹. Ushbu deklaratsiyaning asosiy maqsadi tashkilotga a’zo mamlakatlar aholisining barchasida inson huquqlari, qadr-qimmati va erkinliklariga e’tibor qaratishni eng ustuvor yo‘nalish sifatida belgilashdan iborat. So‘nggi yillarda mamlakatimizda ushbu sohada olib borilayotgan tadbirlarga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston hududida inson huquqlarini mustahkamlashga doir tashkiliy-huquqiy ishlar, xalqaro qonun standartlarini milliy qonunchiligimizga implementatsiya qilish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Xususan, O‘zbekiston inson huquqlariga doir 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga, jumladan, 6 ta asosiy shartnoma va 4 ta fakultativ protokolga

¹ Human Rights Watch:HRW Yangiliklar <https://www.hrw.org>

qo‘shilgan². Ayni vaqtda ushbu shartnomalarning ijrosi yuzasidan BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashiga muntazam ravishda hisobot taqdim etib kelmoqda. Bunga qo‘shimcha ravishda, xalqaro standartlarga mos ravishda yurtimizda ham turli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida 2017—2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi ijrosini ta‘minlash rejalashtirilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalarni samarali va o‘z vaqtida amalga oshirish ham aynan inson huquqlarini mustahkamlashga qaratilgan³. Shuningdek, qonun ustuvorligi va uning inson hayotidagi o‘rni quyidagi jihatlarga ega: Huquqiy savodxonlik va inson huquqlarini anglashda qonunning roli Huquqiy savodxonlik: Qonun ustuvor bo‘lgan jamiyatda fuqarolar o‘z huquqlari va majburiyatlarini bilishlari uchun sharoit yaratiladi. Ta‘lim tizimi va davlat institutlari insonlarga huquqiy bilim berishga ko‘maklashadi. Bu esa insonlarning o‘z huquqlarini anglab, ularni amalga oshirishda faol bo‘lishlariga imkon yaratadi. Adolat va tenglikni ta‘minlash: Qonun ustuvorligi fuqarolar o‘rtasida tenglikni ta‘minlaydi, ya‘ni har bir fuqaro, shuningdek, davlat organlari va mansabdor shaxslar qonunga bo‘ysunishi shart. Bu tamoyil insonlarga huquqlari buzilganida qonuniy himoya olishlariga ishonch bag‘ishlaydi va ularga adolat izlash imkonini beradi. Huquqni himoya qilish: Qonun ustuvor bo‘lgan davlatda insonlar o‘z huquqlarini himoya qilish uchun sud va boshqa huquqni himoya qiluvchi organlarga murojaat qilishlari mumkin. Bu jarayon adolatli, shaffof va samarali bo‘lsa, insonlar o‘z huquqlarini anglab, ulardan foydalanishda ishonch hosil qiladi⁴. Erkinlik va xavfsizlikni ta‘minlash: Qonun ustuvorligi inson huquqlarining kafolati hisoblanadi. Agar qonunlar adolatli bo‘lsa va barcha fuqarolar uchun bir xil qo‘llanilsa, inson o‘z huquqlaridan to‘liq foydalanishi, erkin yashashi va xavfsizligini ta‘minlashi mumkin bo‘ladi. 1Qonun ustuvor bo‘lgan jamiyatda davlat organlari ham fuqarolar oldida mas‘uldir. Bu esa insonlarni o‘z huquqlari buzilganida davlatdan javobgarlik talab qilishga, shuningdek, qonunlar to‘g‘risida ochiq muloqotda bo‘lishga undaydi. Ushbu tamoyillar asnosida dunyoning bir qator mamlakatlarida inson huquqlarini anglab yetishga qaratilgan muzokaralar va amaliy ishlar olib borilgan. Quyida ulardan bir nechtasiga to‘xtalib o‘tamiz. Mamlakatimiz misolida ko‘rib o‘tishimiz kerak bo‘lgan jihatlar shulardan iborat. BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashi 2006-yil 5-mart kuni BMT Bosh Assambleyasining 60/251-rezolyutsiyasi bilan tashkil etilgan⁵.

² <https://lex.uz/docs/-4872355>

³ Inson huquqlari [Matn]: o‘quv qo‘llanma / F. Yusupova. – TDYU nashriyoti, 2024. – 6-bet.

⁴ <http://insonhuquqlari.uz/oz/news/m10038> insonhuquqlari.uz (<http://insonhuquqlari.uz/oz/news/m10038>)

⁵ Mo‘minov A. R., Tillaboev M. A. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi “Adolat” nashriyoti, 2013.

Mazkur rezolyutsiya asosida Kengash inson huquqlari sohasida har bir davlat majburiyatlari bajarilishining Universal davriy tahlilini amalga oshiradi hamda shu orqali universal miqyosda va barcha davlatlarga bir xil munosabatni ta'minlaydi. 2009-yil BMT tomonidan Inson huquqlari bo'yicha ta'lim xalqaro yili deb e'lon qilindi. Inson huquqlari bo'yicha kengash BMTning butun dunyoda barcha inson huquqlarini rag'batlantirish va himoya qilish uchun mas'ul asosiy organi hisoblanadi. Kengashning bosh vazifasi – erkinlik, qonun ustuvorligi va adolatni targ'ib qilishdir. Inson huquqlari bo'yicha kengash qarorgohi Jeneva shahrida joylashgan. BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi 47 ta a'zo davlatdan iborat bo'lib, O'zbekiston 2020-yilda Kengash a'ziligiga uch yil muddatga – 2021–2023-yillarga saylangan. Mamlakatimiz 2021-yil 1-yanvardan boshlab bu boradagi vazifasini bajarib kelmoqda⁶. Jahon miqyosida ham bir qator anjumanlar o'tkazilgan bo'lib, ulardan birinchisi Jeneva (Shveysariya) kengashidir. BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashi dunyodagi eng muhim inson huquqlari tashkiloti bo'lib, uning asosiy yig'ilishlari Jenevada o'tkaziladi. Ushbu yig'ilishlar yil davomida bir necha marta o'tkazilib, dunyo davlatlarining inson huquqlarini himoya qilishdagi yutuqlari va muammolari muhokama qilinadi. Kengash a'zolari global inson huquqlari bo'yicha muammolarni muhokama qiladi va tavsiyalar beradi. Yana bir muhim anjumanlardan biri Vena (Avstriya) kengashi bo'lib, u alohida ahamiyatga ega. Inson huquqlari bo'yicha Vena konferensiyasi (1993) tarixdagi muhim anjumanlardan biri bo'lib, unda birinchi marta inson huquqlari global tamoyillari tasdiqlandi. Ushbu konferensiya inson huquqlarini xalqaro miqyosda himoya qilishda muhim bosqich hisoblanadi. Yillik inson huquqlari forumi – Varshava (Polsha). Har yili Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YeXHT) tomonidan Polshaning Varshava shahrida inson huquqlari va demokratik institutlar bo'yicha yillik forum o'tkaziladi. Bu forumda 50 dan ortiq mamlakat vakillari ishtirok etadi va unda inson huquqlariga oid muammolar muhokama qilinadi. Global Inson huquqlari sammiti – Nyu-York (AQSH). Bu sammit inson huquqlari bo'yicha xalqaro tashkilotlar va davlat rahbarlarini birlashtirib, turli muammolarni hal qilishga qaratilgan⁷. Yig'ilishda xalqaro va milliy darajadagi huquqlar, shuningdek, yangi siyosiy yo'nalishlar muhokama qilinadi. Asiya Inson huquqlari forumi (Bangkok, Tailand). Ushbu forum Osiyo mintaqasidagi inson huquqlari muammolarini hal qilish va ularni yaxshilashga qaratilgan tadbir bo'lib, Tailandda o'tkaziladi. Mintaqaviy huquq himoyachilari va nodavlat tashkilotlar bu forumda ishtirok etib, muammolarni hal qilish yo'llarini muhokama qiladilar. Afrika Inson va xalqlar huquqlari bo'yicha komissiya yig'ilishlari (Banjul, Gambiya). Afrika qit'asida inson huquqlari bo'yicha yirik yig'ilishlardan biri bu Afrika Inson va xalqlar huquqlari bo'yicha komissiyasi

⁶ Global Inson huquqlari forumlari <https://www.gchr.org>

⁷ Abdukamol Rahmonov. "Inson huquqlari va dastlabki tergov" – T.: TYI nashriyoti, 2006. – 4-bet.

tomonidan Gambiada o'tkaziladigan yig'ilishdir. Ushbu komissiya qit'adagi inson huquqlarini himoya qilish va targ'ib qilishga qaratilgan. Yevropa Kengashi Inson huquqlari yig'ilishlari (Strasburg, Fransiya). Yevropa Kengashi ham inson huquqlari bo'yicha muntazam yig'ilishlar va konferensiyalar o'tkazadi⁸. Strasburg shahrida joylashgan Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi bu jarayonning muhim qismi hisoblanadi. O'zbekistonning inson huquqlari bo'yicha milliy yig'ilishlari. O'zbekistonda ham inson huquqlari bo'yicha milliy anjuman va yig'ilishlar o'tkazilib, unda inson huquqlari va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha masalalar muhokama qilinadi. Bu anjumanlar ko'pincha davlat va xalqaro tashkilotlar hamkorligida o'tkaziladi⁹. Mamlakatimizda o'tkazilayotgan tadbirlar o'zbek xalqining manfaatlari uchun, shu muqaddas o'lkada yashayotgan har bir insonning ozod yashashi, go'zal hayoti va farovon turmushi, insoniy qadr-qimmatini uchun xizmat qiladi.

Qonunning har jabhada ahamiyati beqiyosdir. Inson huquqlarini anglashda qonun ustuvorligi muhim rol o'ynaydi. Qonun ustuvorligi deganda, barcha fuqaro va davlat organlari qonunlar va me'yorlarga muvofiq harakat qilishini nazarda tutadi. Bu esa inson huquqlarini himoya qilish, erkinlik va adolatni ta'minlashda asosiy shartdir. Birinchidan, qonun ustuvorligi fuqarolarni har qanday qo'pol muomaladan himoya qiladi. Bu holat fuqarolarning qonuniy huquqlari poymol qilinmasligini ta'minlaydi. Ikkinchidan qonun barchaga bir xil darajada tatbiq etiladi, bu esa ijtimoiy adolatni kuchaytiradi. Har bir fuqaro qonun oldida tengdir. Uchinchidan, qonunlar va qonun ustuvorligi inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan harakatlar va siyosatlarning asosini tashkil etadi. To'rtinchidan, qonun ustuvorligi hukumat va boshqa davlat organlarining javobgarligini oshiradi, bu esa inson huquqlari buzilishining oldini olishda muhimdir. Shu bois, qonun ustuvorligi inson huquqlarini himoya qilish va rivojlantirishda zaruriy shart hisoblanadi. Barcha davlatlar va jamoatchilik qonun ustuvorligini ta'minlashga intilishi lozim, chunki bu jarayon inson huquqlari va erkinliklarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Inson huquqlari [Matn]: o'quv qo'llanma / F. Yusupova. – TDYU nashriyoti, 2024. – 6-bet.
2. Mo'minov A. R., Tillabaev M. A. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "Adolat" nashriyoti, 2013.
3. Abdukamol Rahmonov. "Inson huquqlari va dastlabki tergov" – T.: TYI nashriyoti, 2006. – 4-bet.
4. Human Rights Watch (HRW) Yangiliklar – <https://www.hrw.org>.

⁸ Yevropa Inson huquqlari sudi <https://www.echr.coe.int>

⁹ Human Rights Watch (HRW) Yangiliklar – <https://www.hrw.org>